

2026–2030-YILLARGA MO‘LJALLANGAN BOLALARNI
ZO‘RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH
STRATEGIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU dotsenti

Nabijonova Dilafruz Abdusalil qizi

Namangan davlat universiteti, Yuridik fakulteti talabasi

nabijonovadilafruz7442@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasining mazmun-mohiyati va huquqiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni erta aniqlash, profilaktika qilish hamda xalqaro tajribalarni (Lansarote konvensiyasi, “Barnaxus” modeli) milliy qonunchilikka implimentatsiya qilish masalalari yoritilgan. Strategiyaning jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan muhosasiz muhit shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: bolalar huquqlari, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling (ta‘qib etish), Bogota harakatlar chaqiruvi, Lansarote konvensiyasi, Barnaxus modeli, reviktimizatsiya (qayta-qayta so‘roq qilish), zero tolerance (muhosasiz muhit), profilaktika, implimentatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются суть и правовое значение Стратегии Республики Узбекистан по защите детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы. В исследовании освещаются вопросы раннего выявления и профилактики насилия в отношении детей, а также имплементации международного опыта (Лансаротская конвенция, модель «Барнахус») в национальное законодательство. Научно обоснована роль Стратегии в формировании в обществе среды абсолютной нетерпимости к насилию.

Ключевые слова: права детей, отсутствие заботы, эксплуатация, буллинг (травля), Боготский призыв к действию, Лансаротская конвенция, модель Барнахус, ревиктимизация (повторный допрос), zero tolerance (среда нетерпимости), профилактика, имплементация.

Abstract: This article analyzes the essence and legal significance of the Strategy of the Republic of Uzbekistan for the Protection of Children from All Forms of Violence for 2026–2030. The study covers issues of early detection and prevention of violence against children, as well as the implementation of international best practices (Lanzarote Convention, "Barnahus" model) into national legislation. The role of the Strategy in fostering a social environment of zero tolerance toward violence is scientifically grounded.

Keywords: *children's rights, child neglect, exploitation, bullying, Bogota Call to Action, Lanzarote Convention, Barnahus model, re-victimization (repeated questioning), zero tolerance environment, prevention, implementation.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta‘qib etish (bullying)¹² shaklidagi zo‘ravonliklar bolalarning sog‘lom rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘dirib, ularning jismoniy, aqliy va psixologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, zo‘ravonlik holatlarining yashirin sodir etilishi va kech aniqlanishi ushbu muammoning murakkabligini yanada kuchaytiradi. Shu bois, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni faqat oqibatlariga qarshi kurashish emas, balki uni erta aniqlash, profilaktika qilish va tizimli yondashuv asosida bartaraf etish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda bolalar manfaatlarini ustuvorligi, xavfsiz muhit yaratish hamda zo‘ravonlikka mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida bolalik inson rivojlanishining muhim bosqichi sifatida e‘tirof etilib, bolalarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bolalarni har tomonlama himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom va xavfsiz muhitda voyaga yetishini ta‘minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosati doirasida bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida profilaktika tizimini takomillashtirish va zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, jamiyatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka murosasiz muhitni shakllantirish, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki xavf ostida bo‘lgan bolalarga oilaga yaqin muhitda g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, shu jumladan kunduzgi va boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini kengaytirish, zo‘ravonlik holatlarini yagona va doimiy yangilanadigan ma‘lumotlar bazasida qayd etish, zo‘ravonlik holatlarini baholash va monitoring qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, turli idoralar o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlash hamda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllari uchun javobgarlikni qat‘iy va muqarrar qilish chora-tadbirlari amalga oshirilishi ustuvor yo‘nalishlar¹³ qilib belgilangan.

Bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlikning barcha shakllarini oldini olish va unga qarshi kurashishda mavjud chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish, muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish zarurati – “2026 — 2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi”ni qabul qilishga asos bo‘ldi. Mazkur strategiya bolalarni himoya qilish

¹² O‘zbekiston Respublikasining 14-noyabr 2024-yildagi O‘RQ-996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni, 3-modda.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24-dekabr 2025-yildagi 256-son “2026 — 2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, 1-ilova, 1-bob.

sohasida kompleks va tizimli yondashuvni ta’minlashga qaratilgan strategik yo’l xarita bo’lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi 2026–2030-yillarga mo’ljallangan bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasining mazmuni, o’rni va ahamiyatini o’rganish va ularni huquqiy tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning huquqiy asoslarini va amaliy mexanizmlarini o’rganishda **normativ-huquqiy, taqqoslash va qiyosiy-huquqiy metodlar** qo’llaniladi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026 — 2030-yillarga mo’ljallangan Bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 256-sonli farmoni, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar — Yevropa Kengashining Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risidagi konvensiyasi (Lansarote konvensiyasi) — asosiy manba sifatida o’rganildi.

Tadqiqot jarayonida bolalarga nisbatan zo’ravonlikka qarshi ilg’or xalqaro tajribalar, jumladan “Barnaxus” modeli ham o’rganilib, ularni O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu yo’l bilan strategiyaning huquqiy asoslari, profilaktika va rehabilitatsiya mexanizmlari, erta aniqlash tizimi hamda idoralararo hamkorlikning samaradorligi tizimli ravishda muhokama qilinadi.

NATIJARLAR

2026 — 2030-yillarga mo’ljallangan Bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasining asosiy maqsadi bolalarning xavfsiz va zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoyalangan muhitda yashashi va rivojlanishini ta’minlash, zo’ravonlik xavfi ostida yashayotgan bolalarni erta aniqlash va ularga manzilli yordam ko’rsatish, shuningdek, zo’ravonlikdan jabrlangan yoki unga guvoh bo’lgan bolalarga kompleks xizmatlar ko’rsatish va ularni rehabilitatsiya qilishdan iborat.

Strategiyaning asosiy vazifalari esa bolalarga nisbatan zo’ravonlikning oldini olish, zo’ravonlik holatlari bo’yicha xabar berish va ularga munosabat bildirish tizimini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tarzda amalga oshirishni ta’minlash, ota-onalarning ota-onalik ko’nikmalarini rivojlantirish va oilalarning iqtisodiy holatini yaxshilash orqali oilaviy zo’ravonlik, shu jumladan shafqatsiz munosabatlarni kamaytirish, bolalarning gender tenglikka asoslangan ijtimoiy-psixologik va hayotiy ko’nikmalar bo’yicha ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, maktabgacha ta’limdan tortib ixtisoslashtirilgan va kasbiy ta’lim muassasalarigacha bo’lgan muhitni xavfsiz va qulay qilish, jamiyatda bolalar uchun zo’ravonliksiz, hurmatga va g’amxo’rlikka asoslangan qadriyatlarni mustahkamlash, zo’ravonlikdan jabrlangan yoki xavf ostidagi bolalarning sifatli tibbiy, ijtimoiy, psixologik va huquqiy xizmatlardan foydalanishini ta’minlash hamda bolalarga nisbatan zo’ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonlarini ma’lumotlarni to’plash, monitoring qilish, idoralararo hamkorlikni yo’lga qo’yish va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

- bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalarni ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy qo‘llab-quvvatlashga doir munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, xalqaro va mahalliy standartlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan normativ-huquqiy baza takomillashtiriladi;

- bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlar o‘rtasida samarali idoralararo hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatini aniqlash, baholash, xabar berish, ta’sir chorasini qo‘llash, davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar ko‘rsatish, rehabilitatsiya qilish va moslashtirishning yaxlit integratsiyalashgan tizimi yaratiladi;

- zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalar va ularning oilalariga mahalla, tuman (shahar) va viloyat darajasida ijtimoiy, huquqiy, psixologik va boshqa xizmatlar ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

- zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki unga guvoh bo‘lgan bolalarni himoya qilish va ularga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy xizmat ko‘rsatish qoidalari (standartlari) ishlab chiqiladi, protsessual harakatlar davomida bolalarning huquqlari kafolatlangan odil sudlov tizimi joriy etiladi;

- jamiyatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlovchi stereotiplar o‘zgartiriladi, zo‘ravonlikka qarshi toqatsizlik madaniyati shakllantiriladi, zo‘ravonlik uchun javobgarlik muqarrarligi ta’minlanadi;

- ijobiy xorijiy tajribalar asosida mamlakatda bolalarga nisbatan g‘amxo‘r, ko‘maklashuvchi va qo‘llab-quvvatlaydigan tizim shakllantiriladi.¹⁴

MUHOKAMA

Ta’kidlash joizki, 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Bogota harakatlar chaqiruviga qo‘shilgani hamda Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka chek qo‘yish bo‘yicha global alyans a’zoligiga qabul qilinganligi barchamizga ma’lum.

Bogotá harakatlar chaqiruvi – bu bolalarga qarshi zo‘ravonlikni tugatish bo‘yicha birinchi global vazirlar darajasidagi konferensiyada qabul qilingan xalqaro hujjat bo‘lib, unda davlatlar bolalarga qarshi barcha turdagi zo‘ravonlikni oldini olish, ularni himoya qilish va rehabilitatsiya qilish bo‘yicha majburiyatlarini belgilab berdi. Ushbu chaqiruv global miqyosda bolalarning xavfsiz muhitda rivojlanishini ta’minlash, ilg‘or xalqaro amaliyotlarni tatbiq etish va idoralararo hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

Lansarote konvensiyasi - “Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha Yevropa Kengashining Konvensiyasi”, 2007-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo‘lib, bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiyani oldini olish, jabrlangan bolalarni himoya qilish hamda sud jarayonlarida ularning huquqlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Konvensiya ishtirokchi

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24-dekabr 2025-yildagi 256-sonli “2026 — 2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni 6-&, 4-bob.

davlatlarni bolalarga nisbatan barcha turdagi jinsiy zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, oldini olish va ularga qarshi samarali choralar ko‘rishga majbur qiladi.

Konvensiyaning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning barcha shakllarini jinoyat deb tan olish va unga qarshi samarali qonuniy choralarni belgilash;
2. Sud jarayonlarida bolalarning ovozini eshitish va ularning huquqlarini kafolatlash;
3. Milliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, jumladan, jinoyatchilarni aniqlash, ularni jazolash va zo‘ravonlikka qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Barnaxus modeli — bu bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish va jabrlangan bolalarni himoya qilishda ilg‘or xalqaro amaliyotga asoslangan integratsiyalashgan tizim bo‘lib, dastlab Daniyada ishlab chiqilgan. Ushbu model bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, baholash, profilaktika, psixologik, ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini birlashtiradi. Barnaxus modeli davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamiyat resurslarini muvofiqlashtirish orqali bolalar uchun yagona, xavfsiz va samarali himoya tizimini yaratadi.

O‘zbekistonda Barnaxus modelini joriy qilishning foydali tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Integratsiyalashgan yondashuv: Barnaxus modeli yordamida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi barcha xizmatlar — ijtimoiy, psixologik, huquqiy va tibbiy — bir tizimga birlashtiriladi, bu esa ularning xavfsiz va to‘liq himoya qilinishini ta‘minlaydi.
2. Samarali koordinatsiya: Davlat va nodavlat institutlar o‘rtasida koordinatsiyalashgan faoliyatni tashkil etish orqali resurslar samarali ishlatiladi va xizmatlar qamrovi kengayadi.
3. Xalqaro standartlarga moslashuv: Modelni O‘zbekistonda joriy etish strategiya va qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi, shu bilan mamlakatning bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish bo‘yicha global hamjamiyat bilan hamkorligini kuchaytiradi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tahlil qilish asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, mazkur strategiya bolalarni himoya qilish tizimini shunchaki huquqiy tartibga solishdan iborat bo‘lmasdan, balki ijtimoiy, psixologik va institutsional choralarni birlashtirgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Zo‘ravonlik sodir etilgandan keyingi jazo choralardan ko‘ra, uni erta aniqlash va profilaktika qilishga ustuvorlik berilishi davlat siyosatining insonparvarlik mohiyatini hamda bolaning eng ustuvor manfaatlarini ko‘zlashini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning Lansarote konvensiyasi tamoyillarini implimentatsiya qilishi va Bogotá Harakatlar Chaqiruviga qo‘shilishi milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishda tub burilish yasaydi. Bu qadam nafaqat mamlakatning

xalqaro hamjamiyat oldidagi nufuzini oshiradi, balki bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishiga qarshi kurashishda eng ilg‘or va sinovdan o‘tgan metodlarni qo‘llash imkonini beradi.

Uchinchidan, tadqiqotda tahlil qilingan “Barnaxus” modelining milliy amaliyotga tatbiq etilishi bolalar uchun adolatli va xavfsiz muhit yaratishning asosiy omilidir. Mazkur integratsiyalashgan tizim bolani qayta-qayta so‘roq qilish (re-viktimizatsiya) kabi ruhiy jarohatlardan asraydi hamda barcha ijtimoiy-huquqiy xizmatlarni yagona nuqtada samarali ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

To‘rtinchidan, strategiya doirasida yo‘lga qo‘yiladigan idoralararo hamkorlik va yagona monitoring tizimi tarqoq harakatlarni birlashtirib, har bir xavf ostidagi bola ustidan tizimli nazorat o‘rnatishga xizmat qiladi. Bu esa zo‘ravonlik holatlarining “yashirin” qolish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiya O‘zbekistonda bolalarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning yangi bosqichini boshlab beradi. Strategiyada belgilangan vazifalarning to‘liq va sifatli ijro etilishi jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan mutlaqo muhosasiz (zero tolerance) muhitni shakllantirishga hamda har bir bolaning sog‘lom, xavfsiz va baxtli voyaga yetishi uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023y.
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 24-dekabr 2025-yildagi pf-256-son “2026 — 2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasining 14-noyabr 2024-yildagi O‘RQ-996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni
4. <https://www.coe.int/en/web/children/lanzarote-convention>
5. <https://endviolenceagainstchildrenconference.org/wp-content/uploads/2024/12/FINAL-BOGOTA-CALL-TO-ACTION.pdf>